XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 6-mart 110-12-180-Q/25 Urganch shahar hokimligi

Urganch shahrida milliylikni keng targʻib qilishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida

Xorazm shahari hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar boʻyicha oʻrinbosari majmuasining 2025-yil 30-yanvardagi 1130-sonli xati, Xorazm shaharining ijtimoiy-madaniy rivojlanishini taʻminlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, oʻzbek xalqining milliy boy madaniy merosini targʻib qilish, shahar aholisining milliy liboslarga eʻtiborini qaratish orqali estetik didini oshirish, turizmni rivojlantirish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6 va 21^1-moddalariga asosan, Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 31-yanvardagi 55-12-0-Q/25-sonli qarorining ijrosini taʼminlash maqsadida

Qaror qilaman:

1. Xorazm shahari hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar boʻyicha oʻrinbosari majmuasining 2025-yil 30-yanvardagi 1130-sonli xati, Xorazm shaharining ijtimoiy-madaniy rivojlanishini taʻminlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, oʻzbek xalqining milliy boy madaniy merosini targʻib qilish, shahar aholisining milliy liboslarga eʻtiborini qaratish orqali estetik didini oshirish, turizmni rivojlantirish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6 va 21^1-moddalariga asosan, Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 31-yanvardagi 55-12-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shaharda milliylikni keng targʻib qilish boʻyicha shahar ishchi guruhi (keyingi oʻrinlarda – shahar ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar ishchi guruhining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin: milliy liboslar va milliylikni ommalashtirishga oid targʻibot materiallarini ishlab

chiqish;

korxona, muassasa va tashkilotlar hamda mahalla fuqarolar yigʻinlari bilan hamkorlikni tashkil etish;

ommaviy tadbirlar davrida milliy liboslar va milliylikning mavqeyini mustahkamlanishini taʻminlash;

milliy liboslar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash;

mavzuga oid oʻquv-seminarlari, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

qarorning bajarilishi yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirish.

4. Shahar hokimining oʻrinbosarlari, idora va tashkilotlari;

mazkur qarordan kelib chiqqan holda targʻibot milliy liboslar va milliylikning ijobiy ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan maʻrifiy, madaniy, axborot va reklama tadbirlarini amalga oshirsin;

milliy liboslarda yurishni, milliylikni targʻib qilishni va milliy madaniyatni rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash maqsadida moddiy va maʻnaviy ragʻbatlantirish choralarini koʻrsin.

davlat va jamoat tashkilotlari yoki xususiy sektorlar tomonidan oʻtkaziladigan madaniy, sport, maʻrifiy hamda boshqa turdagi tadbirlarga aholining keng qatlamlari jalb qilinsin.

5. Shahar hokimining oʻrinbosari A.Isakov, Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi shahar boʻlimi S.Yakubov har bir mahallada milliy urf-odatlar va anʻanalarni saqlash hamda targʻib qilish uchun milliy oʻyinlar, raqs va qoʻshiqlar toʻgaraklarini tashkil etsin.

6. Shahar hokimining birinchi oʻrinbosari J.Eshchanov, shahar iqtisodiyot va moliya boʻlimi (J.Sapayev) ushbu qarorda koʻzda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bogʻliq sarf-xarajatlarni shahar mahalliy budjeti va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish yuzasidan takliflarni xalq deputatlari shahar Kengashiga kiritsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimi oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi I.Musayeva zimmasiga yuklansin.

Urganch shahar hokimi **B.Radjapov**

Urganch shahar hokimining
2025-yil 6-martdagi
110-12-180-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Urganch shahrida milliylikni keng targʻib qilish boʻyicha shahar ishchi guruhning
TARKIBI

1.	I.Musayeva	–	Shahar hokimi oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi, **shahar ishchi guruhi rahbari**
2.	A.Isakov	–	Shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʻnaviy-maʻrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari, **shahar ishchi guruhi rahbarining oʻrinbosari**
5.	Gʻ.Sharipov	–	Shahar ichki ishlar boʻlimi boshligʻi
6.	I.Bekchanov	–	Milliy gvardiyaning shahar boʻyicha boʻlimi boshligʻi
7.	R.Matkarimov	–	Shahar madaniyat boʻlimi boshligʻi
8.	M.Marimov	–	Shahar maktabgacha va maktab taʻlimi boʻlimi boshligʻi
9.	S.Yakubov	–	Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi shahar boʻlimi boshligʻi
11.	O.Matkarimov	–	Shahar sogʻliqni saqlash boʻlimi boshligʻi
12.	Z.Madraximov	–	Yoshlar ishlari shahar boʻlimi boshligʻi
14.	Z.Atadjanov	–	Respublika Maʻnaviyat va maʻrifat markazi shahar boʻlimi rahbari